

MATEMATIKA O'QITISHDA TAYYORGARLIK DAVRINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Qurbonova Mashhura Muzaffar qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7069734>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish, matematika darslarini tashkillashtirish hamda matematik topshiriqlar haqida so'z boradi. Boshlang'ich sinflarda matematika fani eng muhim fanlardan biri hisoblanadi va fanlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: matematika, arifmetika, misollar, boshlang'ich sinf, metodika, matematika o'qitish.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОГО ПЕРИОДА В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ

Аннотация. В данной статье рассказывается об обучении математике в младших классах, организации уроков математики, выполнении математических заданий. В начальных классах математика является одним из важнейших предметов и играет важную роль в системе предметов.

Ключевые слова: математика, арифметика, примеры, начальный класс, методика, обучение математике.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING THE PREPARATORY PERIOD IN TEACHING MATHEMATICS

Abstract. This article talks about teaching mathematics in elementary grades, organizing mathematics lessons, and performing mathematical tasks. In primary school, mathematics is one of the most important subjects and plays an important role in the system of subjects.

Keywords: mathematics, arithmetic, examples, elementary grade, methodology, teaching mathematics.

KIRISH

Arifmetika material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi va muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich kursning asosiy o'zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat va shu mavzular bo'yicha dars mashg'ulotlari tashkillashtiriladi. Bundan tashqari, bu kursda geometriya va algebraning asosiy tushunchalari o'rgatiladi va algebraik bilimlarga asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf matematika kursi algebra fanining asosiy o'zagi hisoblanadi va arifmetik amallardan boshlanadi. Lekin boshlang'ich sinflarda matematika darslarini to'g'ri tashkillashtirish bolalar matematik bilimlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Dastlab matematikaga kirishda natural sonlar va arifmetik amallar o'rgatiladi. Ushbu jarayonlar turli xil metodlar bilan o'rgatilsa yanada soddaroq va tushunilish darajasi yuqoriroq bo'ladi. Shu sababdan ham boshlang'ich sinflarda matematika darslarida osonroq metodlar qo'llaniladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlab arifmetik amallar o'rgatilsa keyin matematik amallar, ko'pburchaklar va to'g'ri, egri chiziqlar haqida dars jarayonlari tashkillashtiriladi. Bu

o'quvchilarda matematik bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Lekin e'tiborliroq jihati shuki dastlabki bilim berishda o'quvchilarda matematika faniga nisbatan qiziqishni oshirish lozim.

Arifmetik amallarni o'rgatishdan oldin bu amallarning aniq mohiyati ochiladi, keyin esa amalning boshqa komponentlar orasidagi bog'liqligi, so'ngra amal natijasi o'rganiladi. Va shu asnoda o'quvchilarda ham arifmetik bilim shakllantiriladi.

Matematika darslarini tashkillashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagi metodlarni qo'llash mumkin:

- 1) Oson va sodda arifmetik amallar bilan
- 2) To'g'ri va egri chiziqlar asosidagi arifmetik amallar o'rgatish
- 3) Dars mashg'ulotlarida qiziqarli o'yinlar bilan arifmetik amallar o'rgatish
- 4) Va boshqa ko'plab qiziqarli metodlar

MUHOKAMA

Biz matematika darslarini tashkillashtirishda albatta o'quvchilar yoshi va qiziqishini hisobga olishimiz kerak. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilariga yuqoriroq algebraik amallar o'rgatilsa bu ular uchun qiyinlik qiladi va o'quvchini qiziqitirmaydi, natijada esa o'quvchida matematik ko'nikma shakllanmay qolishi mumkin.

Shu sababdan ham matematika boshlang'ich sinf darsliklari boshqa yuqoriroq sinf darsliklariga qaraganda osonroq va soddaroq tuzilgan. Va albatta pedagog bu ko'nikmalarni o'quvchilariga yetirib bera olishi darkor.

1-2-sinf o'quvchilari dastlab kesmalar, to'g'ri va egri chiziqlar, to'rtburchaklar va boshqa elementlar haqida o'rganadi. Keyinchalik esa ular karra jadvallar va biroz murakkabroq amallarni o'rgatishga harakat qiladilar.

O'quvchilarda matematika faniga nisbatan qiziqishni oshirish uchun pedagoglar matematikaga oid bo'lgan turlicha o'yinlar va dars metodlaridan foydalanishi ularning bilim berish salohiyatiga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, matematika fanini o'rgatish arifmetikadan boshlanadi va keyinchalik algebraik matematika fani asoslari o'rgatila boshlanadi. Bundan tizim ham matematika o'qitish metodi sifatida ushbu fanni chuqurroq va yaxlitroq o'rganib borishda yordam beradi.

REFERENCES

1. Sh.B.Xoliqov "Ustoz-shogirt an'anasi milliy qadriyat" Internet maqola 2016.
2. S.Burxonov, O'.Xudoyorov, Q.Norqulova, N.Ruzikulova va L.Goibova 3-sinf "Matematika" darsligi. Toshkent 2012
3. S.Mardonova G'.I. „Matematikadan test topshiriqlari 2-sinf“- Toshkent.: O'qituvchi, 2007.
4. S.Mardonova G'.I. „Matematikadan test topshiriqlari 3-sinf“- Toshkent.: O'qituvchi,
5. S.Stoylova L. va boshqalar „Boshlang'ich matematika kursi asoslari“ - Toshkent.: O'qituvchi, 1991.
6. S.Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinf matematika darslarida tarixiy materiallardan foydalanish.-T.: "Uzkomsentr", 2003.